



“ISROIL TA’LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIK TA’LIMNING O‘RNI VA UNI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI”

Kattaqo‘rg‘on Davlat

Pedagogika Instituti

Pedagogika yo‘nalishi 3- kurs talabasi

Orziqulova Farzona Sherzod qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isroil davlati ta’lim tizimi va uning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, Isroil va O‘zbekiston ta’lim tizimlari Venn diagramma asosida qiyosiy tahlil qilinib, Isroil ta’lim tizimi SWOT tahlil yordamida chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ikki davlat ta’lim tizimida innovatsion ta’limni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit sózlar.

Isroil ta'lim tizimi, qiyosiy pedagogika, vend diagrammasi, Nobel mukofoti, yahudiylar, Pisa, Pirls, Timess, burnout.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется система образования государства Израиль и её эффективность. Кроме того, проводится сравнительный анализ систем образования Израиля и Узбекистана на основе диаграммы Венна, а также углублённое изучение системы образования Израиля с использованием SWOT-анализа. Результаты исследования способствуют определению перспектив развития инновационного образования в системах образования обеих стран.

Ключевые слова: система образования Израиля, , сравнительная педагогика, Нобелевская премия, евреи, PISA, Timess, PIRLS, профессиональное выгорание.



ANNOTATION

This article analyzes the education system of the State of Israel and its effectiveness. In addition, a comparative analysis of the education systems of Israel and Uzbekistan is conducted based on a Venn diagram, and an in-depth study of Israel's education system is carried out using SWOT analysis. The research findings help identify prospects for the development of innovative education in the education systems of both countries.

Keywords

education system of Israel, comparative pedagogy, Venn diagram, Nobel Prize, Jews, PISA, PIRLS, Timess, burnout.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini o'rganish va tahlil qilish pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim sifati, innovatsion yondashuvlar va xalqaro baholash dasturlaridagi natijalari bilan ajralib turuvchi Isroil davlati ta'lim tizimi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim tajriba manbaidir. Isroil ta'lim tizimining samaradorligi PISA va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari va , ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar bilan tasdiqlanadi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ham innovatsion ta'limni rivojlantirish, qiyosiy pedagogika asosida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun, Isroil va O'zbekiston ta'lim tizimlarini Venn diagramma asosida qiyosiy tahlil qilish hamda Isroil ta'lim tizimini SWOT tahlil orqali chuqurur o'rganamiz.

Isroil davlat ta'lim tizimini o'rganishdan oldin bu davlat haqida qisqa malumotga ega bo'lamiz Isroil O'rta Sharq o'lkasida, Osiyoning g'arbiy qismida, O'rta dengizning janubi-sharqiy bo'yida joylashgan davlat. Asosiy va rasmiy maydoni 22,072 km² . Aholisi soni 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 9,883,520 kishi. Poytaxti — Quddus (qisman tan olingan). Asosiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy



markazi — Quddus (bahsli) va Tel-Aviv. Rasmiy tili — ibroniy. Tan olingan til — arabcha.

Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi): a) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar), b) o'rta ta'lim (5-9-sinflar), Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi. v) texnologik ta'lim (10-12 sinflar). O'quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir. Har yili 12-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'rtacha 20-40 % attestat oladilar. Shundan keyingi barcha toifadagi ta'lim xizmatlari pullik. O'n sakiz yoshga kirgan o'g'il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi. Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli xammasi universitetga o'qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o'qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin. Attestati yo'qlar texnologik maktablarning 13-14-sinflarida o'qiydi, lekin istagan sinfdan so'ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o'qishni yakunlashi mumkin. 15-16-sinflarda o'qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo'ladi. Bunday sinflarga ega bo'lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el univesitetlari bilan shartnomaga ega bo'lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi. Ta'limdagi ustuvor yo'nalishlar va moddiy-texnik ta'minot Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta'limga juda katta etibor qaratilgan va turli-tuman ko'rinishdagi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlari, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mutaxassislik yo'nalishlariga ega Masalan: elektronika, kompyuter, ekologiya, kishlok xo'jaligi, kimyo, grajdan dengiz floti va boshqalar. Ta'lim muassasalarining barcha turlari moddiy texnik bazasi, kompyuter bilan jihozlanganligi juda yuqori darajada. Barcha



kompyuterlar Internetga ulangan. O'quv jarayonida Internetdan keng foydalaniladi.. Ta'lim tizimida o'quvchiga juda ko'p bilim berilmaydi, lekin o'quvchilar, hatto bog'cha bolasi ham, mustaqil ravishda fan mavzuga bog'langan holda proyektlar yozadi yoki tayyorlaydi va himoya qiladi. Isroil davlati pedagogikasi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchiga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan va «Bilim olishga o'rgatish uchun o'qitiladi» degan shior bilan ta'lim beriladi. Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta'lim texnologiyasi ko'ra sinflarda o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o'qitiladi. Ta'lim barcha fanlar bo'yicha hayot va tabiat bilan bog'lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog'lanishi doimo ko'zga tashlanib turdi. Isroilda, Yevropadan farqli o'laroq, 18 yoshga qadar oliygohga o'qishga kirishning iloji yo'q. Deyarli barcha talabalar universitetga qadar harbiy xizmatni o'taydi. Odatda xizmat qizlar uchun 2 yil, o'g'il bolalar uchun 3 yilni tashkil etadi. Bu ta'limda juda muhim omil sanaladi. Oliy ta'lim tizimi uch bosqichli: 1. Bakalavriatura - 4 yil, 2. Magistratura - 2 yil, 3. Doktorantura - 3 yil. Bakalavr va magistr uchun o'qish Isroilda, doktorantura asosan evropa va AQSh da amalga oshiriladi. . Mutaxassis (bakalavr, magistr, doktor) istagan ko'rinishdagi o'quv yurtida pedagog sifatida ishlashi uchun albatta bir yil o'qib pedagogik faoliyat ko'rsatish huquqini olishi kerak. Bu o'qish universitetlarning pedagogik fakultetlarida, pedagogik kollej va markazlarda amalga oshiriladi. Isroil universitetlarining diplomi nufuzli hisoblanib, Yevropa va Amerikada qadrlanadi. Mamlakatda ham bakalavr diplomiga ega bitiruvchilar ish topishda deyarli muammoga duch kelmaydilar – oliy ma'lumotlilarning 95 foizi ish bilan ta'minlanadi. Texnologiya va muhandislik sohasidagi mutaxassislarning ayniqsa bozori chaqqon: ular ish izlab yurishlari shart emas, ish beruvchilarning o'zlari kadrlar uchun kurash olib borishadi.

Eng nufuzli oliy talim muassasalari. Davlatdagi 6 ta Oliy o'quv yurti Osiyoning eng zór 100 taligidan órni olgan.Dunyodagi Oliy o'quv yurtlarini 150 taligiga 4 tasi




kirgan. Dunyoni top 200 ta Universitetlariga davlatni 3 ta óquv yurti órni egallagan. Bundan xam kórinib turubdiki talim tizimi kuchli.

Pedagoglarning malaka oshirishi ikki toifaga bo‘linadi. 1. Pedagogik ish og‘ir hisoblanganligi uchun tayyorlov sinfi pedagoglaridan tortib universitet professorlarigacha olti yil ishlagandan so‘ng dam olish, o‘zining professional va pedagogik malakasini oshirish va birorta xobbi bilan shug‘illanish uchun bir yil to‘liq ish xaqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi. Bu vaqtda boshqa joyda ishlashga haqqi yo‘q. Pedagog bu davrida albatta malakasini oshirish uchun kurslar eshitadi, individual va guruhlarda maslahatlar oladi, kutubxanalarda va Internet to‘rida mustaqil ravishda malakasini oshiradi. 2. Universitet professorlaridan tashqari barcha toifadagi o‘quv yurtlarining pedagoglari joriy malaka oshirishlardan o‘tib turishi kerak. Burnig uchun hafta metodik kun beriladi. Metodik kunda u malaka oshirish uchun 2 soatga ekvivalent qo‘shimcha xaq to‘lanadi. Bu kunda u o‘zining professional va pedagogik malakasini oshirish uchun kurslarga qatnashi kerak. Kurslarga har hafta yoki soatlar (mablag‘) yig‘ilganda birdaniga qatnashi mumkin. Kurslar natijasida pedagog kredit to‘playdi. Isroil ta’lim tizimida yuqori akademik talablar, raqobat muhiti va doimiy baholash jarayonlari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda o‘quvchilar va pedagoglar orasida burnout, ya’ni hissiy va ruhiy charchash holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ortiqcha yuklama va natijaga haddan tashqari yo‘naltirilgan ta’lim modeli psixologik farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ta’lim jarayonida akademik natijalar bilan bir qatorda o‘quvchi va o‘qituvchilarning psixologik holatini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Endi Isroil ta’limini Xalqaro baholash sistemasidagi órnini tahlil qilamiz. PIRLS — 4-sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi va matnni tushunish qobiliyatini tekshiruvchi baholash. Isroil bu baholashda 2001 yildan boshlab qatnashgan. Isroil PISA testiga birinchi marta 2002-yilda qatnasha boshlagan. Bu PISA baholashiga dastlabki ishtirok edi va shundan keyin muntazam ravishda



ishtirok etib kelmoqda. PISA testlari 15 yoshli o'quvchilarni matematika, o'qish va fan bo'yicha baholaydi va davlatlar ta'lim tizimini xalqaro standartlar bo'yicha solishtirish imkonini beradi. Isroil TIMSS baholashlarida 1999-yildan qatnashib kelmoqda, ayniqsa 8-sinf o'quvchilari bo'yicha. TIMSS testlari matematika va tabiat fanlari bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini o'lchaydi va odatda har to'rt yilda bir marotaba o'tkaziladi.



Isroil

ta'lim tizimining samaradorligi nafaqat xalqaro baholash dasturlari natijalarida, balki ilm-fan sohasidagi yutuqlarda ham namoyon bo'ladi. Xususan, yahudiy millatiga mansub olimlar tomonidan Nobel mukofotlariga sazovor bo'lish holatlarining nisbatan yuqori ekani ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuv, tanqidiy fikrlash va innovatsion muhitning shakllantirilgani bilan izohlanadi. Biz bilamizki Isroil xalqi yahudiylar hisoblanadi. Dunyo bo'yicha yahudiylar eng kóp nobel mukofotini olgan millat hisoblanadi. Yani taxminan 220 nafar Nobel mukofoti olgan, bu barcha laureatlar orasida ~ 22% ni tashkil qiladi.



Laurentlarni sohalar yuzasidan qarab chiqamiz. Fizika: ~ 56 ta, kimyo: ~ 37 ta; tibbiyot : ~ 61 ta, iqtisodiyot: ~ 40 ta, adabiyot: ~ 17 ta; tinchlik: ~ 9 ta.

Ta'lim tizimini SWOOT tahlili asosida kórib chiqamiZ.

Kuchli jihatlari. Yuqori ta'lim sifati PISA, TIMSS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlar; kuchli metodika va texnologiyalar. Innovatsion va ITga asoslangan ta'lim tizimi, maktablarda STEM, robototexnika, darslarini kengligi. O'qituvchilarni muntazam malaka oshirishi. Inklyuziv ta'limning rivojlanganligi. Uch tilda ta'lim imkoniyati Ibroniya, arab va ingliz tillarida o'qitish. Mustaqil fikrlashga urg'u qaratilishi. O'quvchi tashabbusi, loyiha ishlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Zaif tomonlari. Ta'lim tizimida tabaqalanish yuqori Arab va yahudiy maktablari sifatlarida farqlarni mavjudligi. Taqvimiy yuklama katta. Darslar ko'p, psixologik bosim yuqori Xususiy sektorning kuchayishi. Davlat maktablaridan ko'ra xususiy maktablar rivojlangan bu tengsizlikka olib keladi. Ba'zi hududlarda resurs yetishmovchiligi. Chekka hududlarda jihozlar va malakali o'qituvchi tanqisligi Xavfsizlik muammolari Siyosiy-harbiy holat ta'lim jarayoniga ta'sir qilishi mumkin.

Imkoniyatlar. Ta'lim tizimida tabaqalanish yuqori Arab va yahudiy maktablari sifatlarida farqlarni mavjudligi. Taqvimiy yuklama katta. Darslar ko'p, psixologik bosim yuqori Xususiy sektorning kuchayishi. Davlat maktablaridan ko'ra xususiy maktablar rivojlangan bu tengsizlikka olib keladi. Ba'zi hududlarda resurs yetishmovchiligi. Chekka hududlarda jihozlar va malakali o'qituvchi tanqisligi Xavfsizlik muammolari Siyosiy-harbiy holat ta'lim jarayoniga ta'sir qilishi mumkin.

Tahdidlar. Geosiyosiy vaziyat : Urush va xavfsizlik muammolari maktab faoliyatiga ta'sir qiladi Immigratsiya oqimi : Kelgan bolalarni moslashtirishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi. Ta'lim jarayonida tengsizlik xavfi : Etnik, diniy va hududiy farqlar chuqurlashishi. Raqobatning ortishi: Global ta'lim bozorida kuchli raqobatni yuzaga keltirishi.



Xulosa. Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, Isroil ta’lim tizimi yuqori ilmiy natijalar va innovatsion yutuqlar bilan ajralib tursa-da, unda ijtimoiy tengsizlik va o‘quv yuklamasining ortiqqligi kabi muammolar ham mavjud. Bu holat ta’lim tizimini komparativ tahlil qilishda nafaqat yutuqlarni, balki mavjud kamchiliklarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Isroil ta'lim tizimini tahlil qilgan holda Tavsiyalar ishlab chiqamiz.

1.O‘zbekistonda o‘rta maktablarda texnologik va kasb-hunar yo‘nalishlarini kuchaytirish, texnologik maktablar va kollejlarda bilan universitetlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

2 O‘zbek maktablarida ham o‘quvchilarga ko‘proq mustaqil ish, loyiha va tadqiqot asosida ta’lim berish bu o‘quvchini mustaqil va kreativ fikirlashga undaydi.

3.O‘zbek maktablarini yuqori darajada texnologik jihozlash, onlayn o‘qitish va masofaviy ta’lim tizimini kengaytirish.

4.O‘zbekistonda pedagoglar uchun malaka oshirish tizimini yanada tartibli va samarali qilish, kredit tizimini joriy etish.

5.O‘zbek maktablarida shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini keng joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. OECD. PISA 2022 Results (Volume I–II). Paris: OECD Publishing.
- 2,IEA. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center.
- 2.Abdurahmonov, Q. X. Ta’lim sifati va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
- 3.Xodjayev, B. R. Komparativ pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
- 4.Rasulov, A. A. Zamonaviy ta’lim tizimlarining qiyosiy tahlili. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.



5. Yo‘ldoshev, J. G‘., Usmonov, S. A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

6. Hanushek, E. A., Woessmann, L. The Role of Education Quality in Economic Growth. Google Scholar:
<https://scholar.google.com/scholar?q=The+Role+of+Education+Quality+in+Economic+Growth>.